
TUMAN HOKIMI SAYLOV UCHASTKASIDA BO'LDI

📷

24 oktyabr – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi kuni tobora yaqinlashmoqda. Saylov uchastkalarida mazkur muhim siyosiy jarayonga ko‘rilayotgan tayyorgarlik ishlari ham yakuniy bosqichga kirdi.

Qo‘shtepa tumani hokimi I.Novikov kunlik ish rejasiga asosan hududlarda joylashgan saylov uchastkalari holati va siyosiy jarayonga tayyorgarlik ishlarini muntazam ko‘zdan kechirib kelmoqda.

Tuman rahabari bugun 34-umumta'lim maktabida tashkil etilgan saylov uchastkasida bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligi sayloviga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi. Mas'ul rahbarlarga saylovga munosib tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

Qo‘shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-10-18 19:14:27